

SUN YAT SENNING SIYOSIY FAOLIYATIGA BIR NAZAR

Rahimjonov Mirzohid

Oriental universiteti o‘qituvchisi.

Ishonqulova Sabina

Oriental universiteti talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15677875>

Annotatsiya. Ushbu maqolada xitoylik siyosatchi va faylasuf Sun Yat Senning Xitoy tarixiga ko‘rsatgan ta’siri, Xitoy millatini birlashtirish, chet el bosqinlaridan ozod qilish va milliy mustaqillikni ta’minlashda olib borgan siyosati haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Sin sulolasi, Sinxay inqilobi, bepul ta’lim, demokratiya, Gomindan partiyasi, birlashuv, uch xalq tamoyili.

Yorug‘ olam-barchamizning umumiy mulkimiz.

(Sun Yat Sen)

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida dunyo mamlakatlari o‘rtasida siyosiy vaziyat keskinlashib borayotgan edi. Xususan, jahoning taraqqiy etgan davlatlari ikki harbiy ittifoqqa birlashib o‘zaro raqobatlashayotgan bir davrda Osiyoning yirik davlatlari siyosiy tannazulni boshdan kechirayotgandi. Osiyo davlatlari nafaqat siyosiy tanazzul, balki dunyoning rivojlangan qudratga ega davlatlari tomonidan ta’sir doiralarga bo‘lib olingan ham edi. Yangi asr boshiga kelib, Xitoy ham xuddi boshqa mamlakatlar singari turli ta’sir doiralariga bo‘lib olingan hamda chet davlatlarining yarimmustamlakasiga aylantirilgandi. Shuning uchun ham o‘sha davrdagi Xitoyni hamma o‘ziga kerakli bo‘lakni kesib oladigan “tort” ga o‘xshatganligi beziz emas edi.

XIX asr oxiri-XX asr boshidagi bunday siyosiy tanazzul boshqa ko‘plab omillar bilan birgalikda asosan siyosiy elita boshqaruvidagi xatolar bilan bog‘liq edi. Xuddi shu davrdan boshlab, Xitoyda ko‘plab qo‘zg‘olonlar amalga oshirildi, bu qo‘zg‘olonlarning asosiy talablari mamlakatdagi siysoiy boshqaruvni o‘zgartirish va mamlakatni chet el asoratidan qutqarish edi.

Shunday og‘ir siyosiy vaziyat yirik kuchga ega bo‘lgan shaxslarni siyosat maydoniga olib chiqadi, shunday Xitoydagi siyosiy yetakchilardan biri Sun Yat Sen edi.

Sun Yat Sen 1866-yil 12-noyabrda Guandun viloyati Syanshan shahrida dehqon oilasida tug‘ilgan bo‘lib, u Gongkongda g‘arb ta’limini olgach tibbiyat institutiga o‘qishga kiradi [1-B.]. 1892-yilda tibbiyat institutini tugatgan Sun Yat Sen ta’lim u chet el davlatlarining Xitoya bo‘lgan ta’siri kuchayishini ko‘rib siyosatga qiziqa boshlagan. 1893-yilda Sun Yat Sen ishlab chiqqan “To‘rt shart dasturidagi” birinchi shartida ta’lim sohasini “odamlar o‘z qobiliyatlarini to‘liq namoyon qila oladigan” darajada o‘zgartirish talabi belgilab qo‘yilgan edi. O‘zining islohotchilik rejali amalga oshmasligini anglagach, u o‘z oldiga, inqilob g‘alabasi orqali ta’limni rivojlantirishni maqsad qilib qo‘ydi. 1894-yilda Sun Yat Sen Gavayi orollarida birinchi inqilobiy tashkilot “Xitoy tiklanish ittifoqini” ni tashkil qiladi, aynan mana shu organ faoliyatini yo‘lga qo‘yishi, uning mamlakat ozodligi uchun tashlagan ilk qadami edi [2-B. 360]. Bir yildan keyin tashkilotda 200 ga yaqin xitoyliklar maxfiylik asosida ish yurita boshladи. 1895-yil 26-oktabrda Sun Yat Sen boshchiligidagi boshlangan to‘ntarish muvaffaqiyatsizlikka uchragandan so‘ng, uning o‘n olti yillik hayoti Yevropada o‘tadi va u 1895-yil sentabrda Londonga boradi [2-B. 360].

Londondagi Sin hukumati agentlari unga tuzoq qo'yib, bu orqali uni Xitoyga qaytarib yuborishni mo'ljallagan edilar. Ammo uni qutqarishda inglizlar va mahalliy matbuotlar faol ishtirok etishi natijasida, Sin diplomatlari uni ozod qilishga majbur bo'lishadi. U erkinlikka chiqqanidan so'ng "Londonda o'g'irlab ketilgan" nomli kitobini yozadi va ushbu kitob uni nafaqat Yevropada balki Rossiyada ham mashhur qiladi. Shundan so'ng, Sun Yat Sen Yaponiyadagi siyosat arboblari bilan aloqalar o'rnatib, u "Xitoy tiklanish ittifoqi"ni qayta tiklab, 1899-yilda Gongkongda "Xitoy gazetasi"ni chiqardi va Sinlarga qarshi qo'zg'alol uchun yangi rejalar tuza boshladi [2-B. 360]. Sun Yat Sen surgunlik vaqtida aloqada bo'lган insonlari orasida rus inqilobchilari, siyosatchilari va demokratlari ham bo'lган bo'lib, bu orqali u 1905-1907-yillarda rus inqilobi bilan ham tanishadi.

Rossiyadagi inqilobiy voqelarini kuzata turib, Sun Yat Sen o'zining siyosiy falsafasi yaratadi va uni "Uch xalq tamoyili" deb ataydi. Uning tamoyillari quyidagilardan iborat bo'lган:

1. Millatchilik-Xitoy millatini birlashtirish, davlatni bosqinchilardan ozod qilish va milliy mustaqillikni ta'minlash.
2. Demokratiya-xalq hokimiyatini o'rnatish, konstitusiyaviy tuzum yaratish va fuqarolarning huquqlarini himoya qilish.
3. Xalq farovonligi-yerga egalikni tenglashtirish, sanoatni rivojlantirish va ijtimoiy sohalarda adolat o'rnatish.

Sun Yat Sen bu tamoyillar orqali Xitoyda kapitalizmni oldini olishni, davlatda islohotlar o'tkazib, demokratiyanı o'rnatishni o'ylagan edi. Sun Yat Sen g'arb ta'limini olgan yillaridayoq bu maqsadlarni o'ylaganligini ko'rish mumkin. Chunki u yoshligidan Xitoyda bo'layotgan qiyin vaziyatlarni ko'rganligi va albatta uning qalbida buni o'zgartirishga ishtiyoq kuchli bo'lганligini tahmin qilish mumkin. Sun Yat Sen o'z mamlakatini yetakchi davlatlar bilan tenglasha olishini, har tomonlama uni rivojlantirishni istab, bunga erishish yo'llarini aniqlay boshlagan.

Sun Yat Sen boshchiligidagi inqilobiy tashkilotlar 1895-1910-yillarda Sin sulolasiga qarshi bir nechta qurolli harakatlar o'tkazdi. Bularning barchasi muvaffaqiyatsizlikka uchragan bo'lsada, lekin qo'zg'alolnlar Xitoy xalqining ongini o'zgartirishga va inqilobiy harakatlarni kuchaytirishga yordam berdi. 1911-yil 10-oktabrda Uchan provinsiyasida inqilob boshlanadi va qo'zg'alol tezda Xitoyning janubiy va sharqiy provinsiyalariga tarqaldi. Dekabrgacha bo'lган vaqtida Sin sulolasining nazorati ostida faqat 3 ta provinsiyagini qoladi. Bu inqilob tarixda Sinxay inqilobi nomini oladi. Surgundan keyin 1911-yili Xitoyga qaytib kelgan Sun Yat Sen dekbar oyida Respublikaning vaqtincha Prezidenti bo'ladi. 1912-yil 1 yanvardan rasman ish boshlaydi. Ammo oradan qisqa vaqt o'tgach, shu 1912-yilning 15-fevralida Sun Yat Sen o'z lavozimini general Yuan Shi Kayga topshiradi. Buning bir nechta sabablari mavjud edi. Chunki Yuan Shi Kay unga qarshi namoyishkorona tayyorlana boshlagandi. Keyinchalik u Sin sulolasi taxtdan voz kechadigan bo'lsa, prezidentlikni topshirishga tayyorligini aytadi. 1912-yil 12-fevralda Sinlarning taxtdan voz kechisi ro'y beradi va Sun Yat Sen lavozimimi topshiradi. Uning prezidentlik davri qisqa bo'lsada, u shu davr ichida davlatni birlashtirish, konstitutsiyaviy tuzumni o'rnatish va iqtisodiy rivojlanishga harakat qildi. Sun Yat Sen shu bilan bir qatorda ta'limni rivojlantirishga ham katta e'tibor qaratgandi. O'zining "Xalq farovonligi va ijtimoiy inqilobning tamoyillari" asarida Xitoyda umumiy bepul ta'lim to'g'risida qonun qabul qilinishi lozimligi haqida yozadi.

U mamlakatni boshqarishda qatnasha oladigan munosib fuqarolarni maktab tayyorlab berishi lozim deb hisoblaydi. 1912-yil sentabr oyida bo'lgan "Respublika pedagoglarining vazifalari" deb nomlangan nutqida ham u har tomonlama pedagoglarni rivojlantirishga chaqirdi [3-B. 397].

Yana shuni qo'shimcha qilish kerak, Sun Yat Sen bir necha marta xotin-qizlarning ta'lim olishini yoqlab chiqdi. 1912-yil Sun Yat Sen Gomindan partiyasiga asos soldi va uni boshqardi. 1913-yili u xalqnki "ikkinchi inqilob"ga chaqirdi. Ammo bu inqilob aholi tomonidan qo'llab – quvvatlanmadi. Natijada Gomindan taqiqlanib, Sun Yat Sen o'zining tarafдорлари bilan chet elga chiqib ketishga majbur bo'ladi. 1916-yil Yuan Shi Kay vafot etganidan so'ng Xitoy provinsiyalari hokimiyatni egallab turgan guruuhlar o'rtasidagi kurash maydoniga aylanadi. 1916-yil 21-iyun kuni Sun Yat Sen Xitoya qaytadi. 1917-yil 18-sentabrda Guanchjouda parlamentning rasmiy ochilishi bo'lib o'tadi va u yerda Shimolga qarshi harbiy harakat boshlash to'g'risida qonun qabul qilinadi. Bu yurush Gomindan armiyasi tomonidan amalga oshiriladi. 1918-yil may oyida Guansi guruhi rahbari Lu Yun Tin Oliy qo'mondondan Sun Yat Sen is'tefoga chiqishi va Shanxayga ketishini talab qiladi. Sun Yat Sen Shanxayga ketishga majbur bo'ladi.

Ammo shunda ham u harakatdan to'xtamadi, yangi g'oya va rejalar tuza boshladidi. Xitoy milliy partiyasining siyosiy kuchga aylanishiga hissa qo'shgan Sovet ittifoqi va Kominterning yordami bilan 1920-yil dekabrda Guanchjou shahriga kelishi va uning ichki ishlar vaziri lavozimiga saylanashi belgilab qo'yildi.

Bu davrda u xorijiy kuchlarga qarshi ko'pgina harakat qiladi. Ammo 1922-yilda Angliya tashabbusi bilan xitoylik anarxist Cheng Jiongming bilan muzokaralar boshlanib ketdi. 16-iyunda davlat to'ntarishi sodir bo'ldi va u yana Shanxayga ketishga majbur bo'ladi. Lekin shunda ham u taslim bo'lish niyatida emas edi. Xitoy kommunistik partiyasi uni qo'llab – quvvatladi. 1923-yil yanvarda Cheng Jiongming va uning sheriklari Guanchjoudan haydab chiqarildi. Muvaffaqiyatidan ruhlangan Sun Yat Sen 1923-yil 21-fevralda Guanchjouga qaytib, inqilobi hukumatga boshchilik qila boshladidi. Shu yilning iyun oyida XKP ning III-qurultoyi bo'lib o'tdi va bunda Gomindan bilan birlashgan inqilobi front yaratish to'g'risida ko'rib chiqildi. 1924-yil yanvarda Gomindanning I qurultoyi ochildi va unda XKP ning rahbarlari faaol ishtirok etdilar. Shu vaqtida Xitoyda ichki fuqarolik to'qnashuvi bo'lib o'tdi. Ushbu voqealardan so'ng, Sun Yat Sen faoliyatini davom ettira olmadidi.

Sun Yat Sen 1925-yil 12-martda Pekinda jigar saratonidan vafot etadi. U o'limidan oldin ham o'z hamkorlariga faol harakat qilishda to'xtamasliklarini aytgan edi. Sun Yat Sen imzolagan oxirgi hujjat SSSR MKga murojaat bo'ldi. Unda ozod va mustaqil Xitoy qo'shni xalqlar bilan qo'lni qo'lga berib insoniyatning yorqin kelajagi tomon boradigan kun kelishiga umid qilingan edi [3-B. 398].

Shunday qilib Sun Yat Sen Xitoy tarixiga atoqli siyosiy arbob sifatida kirdi. U Xitoyning mustaqillik va milliy ozodlik uchun kurashiga rahbarlik qila oldi va monarxiyani ag'darib tashlash va Xitoyda Respublika o'rnatish maqsadi yo'lida harakatdan to'xtamadi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerak, Sun Yat Sen Xitoy tarixida buyuk siyosatchi va inqilobchi sifatida qoldi. Uning "Uch xalq tamoyili" Xitoy milliy ozodlik harakatining asosiy mafkurasiga aylandi, uning g'oyalari Xitoy Respublikasining rivojlanishi katta ta'sir ko'rsatdi.

U nafaqat Xitoyda balki butun dunyoda milliy ozodlik harakatlarining namoyondasiga aylandi va Undagi vatanparvarlik, har qanday qiyinchilikda ham harakatdan to‘xtamagnligi biz uchun ham bir ibrat aslida. Uning hayoti va faoliyati XX asr tarixining muhim qismi hisoblanadi.

REFERENCES

1. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005-yillar)
2. Shuhrat Ergashev. Jahon tarixi. II-qism. - Toshkent: O‘zbekiston. 2015, B-570.
3. Shuhrat Ergashev, To‘lqin Bobomatov. XX asr: Taqdirlarda aks etgan tarix. – Toshkent: O‘zbekiston. 2012, b – 488.